

GLOBALLASHUV DAVRIDA YOSHLARDA MA'NAVIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISH ZARURIYATI

Abdualilova Muxlisaxon Abduxalil qizi,

Qo'qon davlat universiteti

“Boshlang‘ich ta‘lim” kafedrasida o‘qituvchisi,

Yuldasheva O‘g‘iloy Abbos qizi,

Marg‘ilon shahar 32-umumiy o‘rta ta‘lim maktabi,

boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada bugungi globallashuv davrida yoshlar ongiga, dunyoqarashiga salbiy ta‘sir ko‘rsatayotgan turli xil axborot xurujlari haqida fikr bildiriladi. Yoshlarimizni yot va zararli g‘oyalar ta‘siriga tushib qolishini oldini olish uchun ularda ma‘naviy qadriyatlarga e‘tibor berish masalalari yoritib beriladi.

Kalit so‘zlar: Globallashuv davri, axborot xurujlari, terrorizm, ma‘naviyat, milliy qadriyat, strategiya, komil inson g‘oyasi.

Аннотация: В статье рассматриваются различные информационные атаки, негативно влияющие на сознание и мировоззрение молодёжи в эпоху глобализации. Подчёркивается важность внимания к духовным ценностям, чтобы защитить молодёжь от влияния чуждых и вредоносных идей.

Ключевые слова: Эпоха глобализации, информационных атак, терроризма, духовности, национальных ценностей, стратегии, идеи идеального человека.

Abstract: The article discusses the various information attacks that are negatively affecting the minds and worldviews of young people in today's era of globalization. It highlights the importance of paying attention to spiritual values in order to prevent our young people from being influenced by foreign and harmful ideas.

Keywords: The era of globalization, information attacks, terrorism, spirituality, national values, strategy, the idea of the perfect person.

Insoniyat yaralganidan o‘z avlodini komil inson qilib tarbiyalash uning eng katta orzu-istagi, ustuvor maqsadi bo‘lib kelgan. Bunga sabab esa, komil inson timsolida ijtimoiy hayotda o‘zlari duch kelgan va kelishi mumkin bo‘lgan turli muammo va murakkabliklarga yechimni ko‘rgan. Millatimiz tarixida bunday komil insonlarning juda ko‘plari yetishib chiqqan va nafaqat o‘zlari yashayotgan hudud, balki butun insoniyat uchun ma‘naviy me‘ros qoldirishgan.

Vatanimiz yuksak kelajakka odimlayotgan hozirgi kunimizda ham bunday insonlarga extiyoj har qachongidan ham yuqori bo‘lib qolmoqda. Bugungi globallashuv davri taraqqiyoti, o‘zining ajralmas xususiyati bo‘lgan, ochiq axborot jamiyatini keltirib chiqardi. Hozirgi taraqqiyot bosqichida, har bir mamlakat turli axborotlar kirib kelishi uchun ochiq bo‘lib, hech bir mamlakat turli axborotlardan saqlanish uchun hech qanday to‘siqlarga ega emas. Bugungi kun yoshlari internet, televideniye, sputnik aloqalari va boshqa ko‘plab axborot vositalari orqali kirib

kelayotgan yangiliklarni o‘rganish, o‘zlashtirish va o‘z ustida ishlash imkoniyatiga ega. Ayni paytda kirib kelayotgan ulkan axborot oqimining barchasi ham insonni rivojlanishi, uning barkamolligi uchun xizmat qilmaydi, aksincha axborot tizimidagi ko‘plab g‘oyalar, shaxsni tubanlikka yetaklovchi, uning ahloq-odobi, odamiyligi, hulq-atvori va ezgu niyatlariga putur yetkazuvchi buzg‘unchi g‘oyalardir.

Mazkur buzg‘unchi g‘oyalarni mamlakatimiz yoshlari hayotiga ko‘rsatayotgan salbiy ta‘sirini, bizning xalqimiz uchun mutlaqo yot bo‘lgan, diniy ekstremizm, terrorizm, odam savdosi, giyohvandlik, zo‘ravonlik, huquqbuzarlik, jinoyatchilik, “ommaviy madaniyat” kabi illatlarni ba‘zi yoshlar o‘rtasida tarqalishida ko‘rishimiz mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta‘kidlab o‘tganlaridek: “Bu borada ko‘p hollarda tahdidlarni keltirib chiqarayotgan asosiy sabablar bilan emas, balki ularning oqibatlariga qarshi kurashish bilangina cheklanib qolinmoqda. Xalqaro terrorizm va ekstremizmning ildizini boshqa omillar bilan birga, jaholat va murosasizlik tashkil etadi, deb hisoblayman.

Shu munosabat bilan odamlar, birinchi navbatda, yoshlarning ongu tafakkurini ma‘rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash eng muhim vazifadir.

Ekstremistik faoliyat va zo‘ravonlik bilan bog‘liq jinoyatlarning aksariyati 30 yoshga yetmagan yoshlar tomonidan sodir etilmoqda. Bugungi dunyo yoshlari – son jihatidan butun insoniyat tarixidagi eng yirik avloddir, chunki ular 2 milliarddan ortiq kishini tashkil etmoqda. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o‘z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratish, zo‘ravonlik g‘oyasi "virusi" tarqalishining oldini olishdir. ”

Bugungi kunda mamlakatimiz yoshlarni globallashuv davri illatlari va inson kamolotining “vabosi” bo‘lgan bunday ma‘naviy tahdidlardan saqlab qolish, davlatimizning ustvor yo‘nalishiga aylangan.

Respublikamizda bu borada qabul qilinayotgan qonun va qonunosti hujjatlari, amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, avvalambor sog‘lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish, umuminsoniy qadriyatlarni o‘z ichida mujassamlashtirgan milliy g‘oyani shakllantirishga qaratilgan.

Globallashuv va ta‘lim-tarbiya bilan bog‘liq bo‘lgan yutuqlar va muammolar birinchi prezidentimiz I.Karimovning “Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch” asarida ham to‘liq o‘z ifodasini topgan. I.Karimov globallashuv jarayoni hayotimizga tobora tez va chuqur kirib kelayotganining asosiy omili va sababi haqida to‘xtalib, uni quyidagicha izohlaydi: “Bugungi kunda har qaysi davlatning taraqqiyoti va ravnaqi nafaqat yaqin va uzoq qo‘shnilar, balki jahon miqyosida boshqa mintaqa va hududlar bilan shunday chambarchas bog‘lanib boryaptiki, biron mamlakatning bu jarayondan chetda turishi ijobiy natijalarga olib kelmasligini tushunish, anglash qiyin emas.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida yoshlarni ijtimoiy muhofaza qilish, ularni har tomonlama rivojlantirish, o‘z qobiliyat va imkoniyatlaridan to‘liq foydalanishlari uchun keng imkoniyatlar yaratildi.

Jumladan, mamlakatimiz yoshlarining huquq va manfaatlarini har tomonlama himoya qilish maqsadida O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekistonning yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilinishi, O‘zbekiston

yoshlar ishlari agentligi tuzilgani va bu tashkilotning hayotimizdagi o‘rni va nufuzini oshirish, unga yangi imtiyoz hamda imkoniyatlar berish bo‘yicha amalga oshirayotgan ishlar alohida ahamiyatga ega.

Olib borilayotgan bu ishlar, barchamiz uchun eng muhim masala bo‘lgan, mamlakatimizning taqdiri va kelajagi uchun mas‘uliyatni o‘z zimmasiga oladigan, buning uchun bilim va salohiyatini safarbar etishga qodir bo‘lgan, qat’iyatli yoshlarni tarbiyalab voyaga yetkazishga xizmat qiladi.

Mamlakatimiz o‘z taraqqiyotining yangi davriga qadam qo‘ygan hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasini 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi asosida barcha sohalarda keng ko‘lamli o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda.

Ana shu islohotlarning muvaffaqiyati, mamlakatimizning dunyodagi rivojlangan, zamonaviy davlatlar qatoridan munosib o‘rin egallashi avvalo ilm-fan va ta‘lim-tarbiya sohasining rivoji bilan, bu borada bizning dunyo miqyosida raqobatdosh bo‘la olishimiz bilan uzviy bog‘liq, desak, hech qanday mubolag‘a bo‘lmaydi. Bugungi kunda davr talabi va xalqimizning xohish-irodasidan kelib chiqqan holda, ta‘lim tizimida ulkan islohotlarni amalga oshirib kelinmoqda.

Jamiyatimizda sog‘lom fikr, sog‘lom kuch ustuvor bo‘lishi uchun biz ma‘naviy hayotimizni yuksaltirish, aholi, avvalo yoshlarimizni turli zararli ta’sirlardan asrash, ularni har tomonlama yetuk insonlar qilib tarbiyalash haqida muntazam o‘ylashimiz, faol ish olib borishimiz zarur.

Bu borada amalga oshirayotgan islohotlarimiz, xususan, ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar samaradorligini oshirish, madaniyat va san‘at tashkilotlari, ijodiy uyushmalar va ommaviy axborot vositalari faoliyatini yanada rivojlantirish, soha xodimlari mehnatini munosib qadrlashga qaratilgan amaliy chora-tadbirlar ishlab chiqilishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, yoshlarimizni ushbu tahlikali globallashtiruvchi zamonida zamonda yo‘qotib qo‘ymaslik, ularni milliy qadriyatlar asosida, o‘z oilasiga, mahallasiga, yurtiga va xalqiga sadoqat ruhida go‘zal milliy fazilatlar orali tarbiyalash uchun oila va mahalla o‘rtasidagi tarbiyada ham uyg‘unlikni o‘rnatish lozim.

Shaxs barkamolligi, farzandlarimizni milliy ma‘naviy qadriyatlar asosida tarbiyalashga bog‘liq, mazkur tarbiya esa oiladan boshlanib mahalla va ta‘lim muassasalarida olib borilsagina tarbiyadagi uzviylik va uyg‘unlik amalga oshadi, bu esa mustaqilligimiz maqsadlariga muvofiqdir.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1.Mirziyoyev.Sh.M “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz” Toshkent, O‘zbekiston-2018.

2.Karimov I.A “Yuksak ma‘naviyat–yengilmas kuch” Toshkent, Ma‘naviyat-2008.

3.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustdagi “Yoshlarni ma‘naviy-ahloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta‘lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. www.lex.uz.

4. [www. ma‘naviyat.uz](http://www.ma'naviyat.uz).